

JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!N: 30 (67247)
2019-yil 29-iyul


Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

«YOUTH TECHNO ART-2019»

bolalarning texnik ijodkorligi xalqaro festivali **2**-bet



«TONG YULDUZI» GAZETASI 90 YOSHDA!

Umumta'lim maktablari rahbarlari, ustozlar va ota-onalar diqqatiga!

Joriy yilning avgust oyida respublika bolalar va o'smirlarning davlat nashri - «Tong yulduzi» gazetasi chop etila boshlaganiga 90 yil to'ladi.

Shu munosabat bilan respublikamiz bo'ylab «Obuna-2020» aksiyasi o'tkaziladi.

Aksiya doirasida shu yilning 1-avgustidan 1-noyabriga qadar 2020-yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga yillik obuna bo'lgan har bir o'quvchiga

obuna narxidan 10 foiz chegirma e'lon qilinadi.

Aksiya yakuniga ko'ra, eng ko'p obuna bo'lgan sinf va maktablar alohida rag'batlantiriladi.

Ishonamizki, Siz yurtimiz farzandlarining ilm-u ma'rifatli, komil inson bo'lib ulg'ayishi uchun bor imkoniyatlaringizni ayamaysiz, ularning kelajagiga befarq emassiz.

Biz bilan hamkorlik qilganingiz uchun Sizga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

NASHR HAQIDA MA'LUMOT:

«Tong yulduzi» gazetasi-
ning yillik tahririyat narxi
- 62.400 so'm.

Nashr ko'rsatkichi - 198
Tel: (71) 244-63-08

www.tongyulduzi.uz

e-mail:
tongyulduzi1929@umail.uz

telegram:
t.me/tongyulduz

«YOUTH TECHNO ART-2019» bolalarning texnik ijodkorligi xalqaro festivali

Shu yilning 24-27-iyul kunlari Turin politehnika universitetida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan texnika sohasidagi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va har tomonlama rag'batlantirish maqsadida «Youth techno art-2019» bolalarning texnik ijodkorligi xalqaro festival-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda Iordaniya qirolligi, Armaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalaridan jami 30

nafar iqtidorli o'g'il-qizlar ishtirok etdi. Festival doirasida avtomodel, avia-raketamodel, robototextika, radiotexnika, elektronika va aloqa yo'nalishlarida o'quvchilar o'zaro fikr almashishdi. Ishtirokchilar ikkita tartib asosida baholanishi belgilandi, ya'ni nazariy shart, unda o'z yo'nalishlari bo'yicha tayyorlagan mahsulotlari chizmasi va ijod mahsulotining yaratilishi tarixi, shuningdek, unga ishlatilgan

xomashyolar haqida ma'lumotlar berishdi.

Amaliy shartda esa ishtirokchilar yo'nalishlari asosida o'z ijodiy ishlarini tayyorlab, ularning harakatlanishi va qanday funksiyalarni bajarishini himoya qilishdi.

Ushbu festival chin ma'noda zamonaviy texnika sohalarini rivojlantirishga xizmat qilish bilan birga, bolalar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamladi.



Abduqahhor KAMOLIDDINOV,

poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi:

– Robototexnikaga qiziqishim sababli «Robotics Lab» – «Robototexnika va dasturlash o'quv-amaliy laboratoriyasi»ga qatnayman. Telefon orqali boshqariladigan mashina, robot yasadim. Ularni yasashdan oldin eng avvalo, ustozim Zarif akadan, qolaversa, otamdan ham maslahat olib turaman. Bugun esa «Bolalar bog'i» maketini olib keldim. Bu bog'da ular mazza qilib hordiq chiqarishlari, arg'imchoq uchishlari mumkin.



Rama RASHAD,

16 yosh, Iordaniya qirolligi:

– Men bugungi ishtirokim bilan texnikaga qiz bolalarning ham qiziqishi va qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatish niyatidaman. Bugungi tanlovga biz ikki turdagi robotlarni keltirdik. Lekin, kelajakda men yanada ko'proq o'qib, o'rganib so'zlasha oladigan robotlarni yaratish orzusidaman. Yurtingiz ayniqsa, tarixiy obidalar, Temuriylar davlat tarixi muzeyi meni juda hayratlantirdi. O'zbekistonlik tengdoshlarim boy tarixingiz bilan faxrlanishsa, arzir ekan.



Nurmuhammad MIRZAAHMADOV,

Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi:

– Ta'til davomida «Robotics Lab» o'quv kursiga qatnab, robototexnika bilan shug'ullana boshladim. Turli robot mashinalarni dasturlash va yasash orqali biz murakkab matematik amallarni ham bajaramiz. Kompyuter texnologiyalarini o'rganamiz. Bugungi tanlovga men ustozim bilan birga yagan II darajali robot-mashinamni namoyish qilish uchun olib keldim. Turli davlatlardan kelgan tengdoshlarimning texnik ishlari ham juda rang-barang va qiziqarli ekan. Ular bilan do'stlashib oldik.



Rinat SOVETKANOV,

14 yosh, Qirg'iziston Respublikasi:

– Toshkent shahriga ilk bor kelishim. Mezbonlarning bizni tabassum bilan kutib olishgani menga juda yoqdi. Men O'zbekiston poytaxtini bunchalik zamonaviy ko'rinishda tasavvur qilmagan edim. Mehmondost yurtingizda texnika-texnologiya sohasi bilan shug'ullanish uchun yoshlarga ko'p imkoniyatlar yaratilgan ekan.

Bundan tashqari, poytaxtning diqqatga sazovor maskanlari va Samarqand shahriga qilgan sayohatimiz menda katta taassurot qoldirdi. O'zim haqimda gapiradigan bo'lsam, 8-sinfda o'qiyman. Tanlovda robototexnika yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdim. Biz o'rtog'larim bilan yong'in o'chiruvchi robotni yig'ib ko'rsatdik. U o't o'chiruvchilarga yaxshigina ko'makchi bo'la oladi.

Mazkur festival g'oliblari bilan gazetamizning keyingi sonida tanishasiz.

Shahifani o'z muxbirlarimiz tayyorladi

Har yili ustozim yozgi ta'til kunlarini qanday o'tkazanimiz haqida insho yozdiradilar. Men hozirgi dam olish kunlarimni maroqli o'tkazishga harakat qilar ekanman, mavzu bo'yicha yozishga arzigulik ishlarim ko'payib borayotganidan mamnun bo'laman. Shu vaqt esa bir voqea yodimga tushadi.

Chingiz ERSHOHIN

ARZI HOL

VAQTIDA YOZILGAN INSHO

O'tgan yilgi ta'tildan so'ng odatdagiday ustozim ilk dars tugashi bilan «Yozgi ta'til taassurotlari» mavzusida insho yozib kelishimni uyga vazifa qilib berdilar. Men ta'tilni qanday zavq bilan o'tkazgan bo'lsam, ijodiy ishni ham ana shunday kayfiyatda yozdim. Uni tezroq sinfdoshlarimga o'qib bergim kelardi. Ertasi kuni dars boshlanib, ustozim har birmizdan tayyorlab kelgan vazifamizni so'radilar. Ammo, men portfelimdan daftarimni hech topa olmay halak edim. Navbat menga yetgani sari yuragim qafasga tushgan musichaday pitirlardi. Mana, ustoz mening familiyamni aytdi. Men esa o'rimdan turib, yerga qaragancha mulzam turardim. Shu payt sinf eshigi taqilladi. O'qituvchim eshikni ochdi. Eshik ortida esa qo'lida men yozgan inshoni ko'targancha akam turar edi...



Mochichehra TO'RABOYEVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanida-
gi 303-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

**Qadrli Otajon va Onajon!
Qalbimni qamragan butun his-tuyg'u
va fikrlarimni tilga ko'chirmoqchi
bo'lsam, Sizlarga ushbu so'zlarni
aytishni istar edim.**

Doimiy ulg'ayish va o'zgarish jarayonidaman. Sizning farzandingiz bo'lsam-da, Sizdan ayri holda boshqa bir shaxsiyatni rivojlantirmoqdaman. Meni tushunishga harakat qiling!

Sinab ko'rish orqali o'rganaman. Mening qadam tashlashim mobaynida qiyinchilikka duch kelishingiz mumkin. Menga ozgina erkinlik bering. Meni har yerda, har ishida asrab-avaylashga urinmang. Xatti-harakatlarim natijalarini o'zim ko'rsam, yanada yaxshiroq o'rganaman. O'z ishimni, xatomni o'zim ko'ra olishga ko'nikting.

Katta bo'lishni istasam-da, ora-sira bolalarcha xatti-harakatlardan o'zimni tutolmayman. Bunga ahmiyat bermang. Ammo Siz meni erkalatib yubormang. Keyin hamisha bola bo'lishni istab qolaman. Har bir xohish-istagimni qo'lga kiritma olmasligimni bilaman.

Menga aniq va qarorli munosabatda bo'lishdan chekinmang. Yo'ldan adashganimni ko'rgach, meni chegaralang. Ilgari surgan qoidalarimiz va qonunlarimizning barchasi birdek yoqishini aytolmayman, ammo sira chegaralamaganingizda, nimadir qilishga ikkilanib qolaman. O'ransiz xatti-harakatlarimizni ko'rgach, ham beqaror bo'laman, ham undan foyda topolmayman.

Meni tinglashga harakat qiling. O'rganishga istak bildirgan onlarim savol bergan paytlarimdir. Izohlaringiz qisqa va aniq bo'lsin.

Nasihatlaringizdan ko'ra, xatti-ha-

rakatlaringizdan kuch olishimni unutmang. Meni tarbiyalar ekansiz, ora-sira xatolar qilib qo'yishingiz mumkin. Ularni tezda unutaman. Faqat bir-biringizga hurmat va mehringiz o'zayganini ko'rish meni jarohatlaydi va doim bezovta qiladi.

Ko'p gapirib, baqirmang. Baland ovozdagi aytilganlarni unchalik eshitmayman. Yumshoq va aniq so'zlar menga o'z ta'sirini o'tkazadi. «Men sening yoshingda bo'lganimda...» deya boshlanuvchi nutqlarni har doim quloqqa ilmay o'taman.

Kichik xatolarimni katta aybdek yuzimga solmang. Meni qo'rqitgan holda sindirib, aybdorlik tuyg'usi ta'sirida tarbiya topishimga harakat qilmang. Yaramasliklarim uchun meni yomon bolalardak ko'rmang. Yanglish harakatlaring ustida turib tuzating. Jazo bermasdan avval meni tinglang. Aybimni yuvolmagan kezlarim ko'rilgan choralarga chidashim mumkin.

Meni qobiliyatlarimdan ortiq ishlarga majburlamang. Ammo bajara oladigan ishlarimni amalga oshirishimni kuting. Yutuqqa erishishim uchun menga dastak bo'ling. Hech qursa, harakatlaringni maqtang. Meni boshqalar bilan aralashtirmang, umidsizlikka tushaman.

Mendan kattalarga xos yetuklikni kutmang. Barcha qoidalarim birdan o'rgatishga intilmang. Menga vaqt bering. Yuz foiz durust holda harakat qilganimni ko'rib, xavotirga berilmang. Meni burchakka siqishtirmang. Yolg'on bilan himoyalashga majbur bo'laman. Sizni juda bezovta qilgan chog'imda sovuqqonligingizni yo'qotmang. Jahlingizni ko'ra olaman, meni kamsitmang. Ayniqsa, o'zgalardak oldida qadrimni tushirmang.

Menga nohaqlik qilganingizni tushunganingizda, izohlashdan tortinmang. Uzu so'ratingiz Sizga bo'lgan mehrimni kamaytirmaydi, aksincha, meni Sizga yanada yaqinlashtiradi.

Aslida, men Siz bo'lganingizda, o'zimni yanada teranroq his qila olaman. Menga o'zingizni adashmaydigan va xatoga yo'l qo'ymaydigan holda ko'rsatishdan saqlaning. Aks holda, qattiq ranjiman.

Bilaman, Sizni ora-sira xafa qilaman. Balki, parihonxotirlikka ham solib qo'yarman. Menga berganlaringiz oldida, mendan istaganlaringiz ko'p emasligini ham bilaman.

Mendan «namuna» bo'lishimni kutmasangiz, men ham Sizdan kamchiliksiz ota-ona bo'lishingizni umid qilmayman. Mehribon va tushunuvchan bo'lishingiz men uchun kifoyadir.

Sizning farzandingiz bo'lib dunyoga kelishim qo'limda emas edi. Ammo tanlashga haqqim bo'lganda edi, Sizdan boshqa insonlarning farzandi bo'lishni istamasdim. Hurmat bilan,
FARZANDINGIZ.

DADAMNING SOVG'ASI mutolaaga qiziqishimga sabab bo'ldi

Ilk bor dadam menga «Charlining shokolad fabrikasi» nomli ertak kitobni sovg'a qilgan edi. O'shanda 4-sinfda o'qir edim. Kitobni zavq bilan o'qib chiqqach, menda mutolaaga qiziqish paydo bo'ldi. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning she'rlarini o'qiganimdan so'ng esa o'zim ham she'rlar qoralay boshladim.



Eng quvonarlisi, «Boshimdagi soyabonim» nomli she'rim «Tong yulduzi» gazetasida chop etildi. Shu kuni men juda faxrlanib ketdim. Bir kuni Toshkentga, gazeta tahririyatiga borishga ahd qildim. Yozgi ta'tilda orzuga erishdim. Ilk bor poytaxtga keldim. Garchi go'zal Toshkentning ta'rifi, undagi o'zgarishlar haqida ko'p eshitgan bo'lsam-da, men bu shaharga aynan sevimli gazetam sabab keldim. Ustozim Barno Mirzayeva bilan birgalikda tahririyatda mehmon bo'ldim. Gazetaning nashrga tayyorlanish jarayoni bilan tanishib, uning ijodkorlaridan ijod sirlarini o'rgandim.

Kelajakda yana bir qancha maqsadlarim bor. Ularga ham erishish harakatidaman. Intilganimiz sari istaklarimiz amalga oshirishining guvohi bo'lganimdek, endi men faollikni qo'ldan boy bermayman. Bu yo'lda menga o'z mehri va e'tiborini ayamayotgan ustozimga fursatdan foydalanib, minnatdorchilik bildiraman.

Salohiddinjon SAYFIYEV,
Samarqand viloyati, Urgut tu-
manidagi 118-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

**Turk tilidan
Alisher TURSUNOV
tarjimasi**

XORIJLIK TENGDOSHLARIGA NAMUNA BO'LGAN BOLALAR

«Yoshlik» oromgohi Bo'stonliq tumanining eng chiroyli yerida joylashgan. Bir yonda Chorvoq daryosi to'lg'anadi, boshingizda esa baland tog'lar yuksaladi. Dam olayotgan bolalarga razm solaman: ikki yuzi qip-qizil, suv va quyosh, toza havoda chiniqishgani ko'rinib turibdi. Buni qarangi, ular orasida amerikalik o'zbek bolalari ham bor ekan. Ularning otanalari qachonlardir turli sabab bilan Chikagodan qo'nim topgan ekan. Bugun ular ota makon, ona yurtlarini ko'rish uchun kelishibdi.

Oromgohdagi bugungi tadbirda mezbon bolalar gapimizni jon quloqlari bilan tinglab o'tirishdi. Mehmon o'g'il bolalarni esa avvaliga o'zbekona suhbatimiz qiziqitirmadi shekilli, biroz zerikib ham qolishdi.

Shunda ularga bizning bolalar uchun bu qadriyatlar-u, fazilatlar odatiy holatga aylanganini, ulardan o'rnak olishsa arzishini aytgim keldi.

Ammo, buni ularning o'zlari ko'rib, tushunib turishgan edi. Men esa shu o'rinda oromgohdagi ta'lim-tarbiya ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilgani uchun mutasaddilardan mamnun bo'ldim. Turli to'garaklarda bolalarning hunar o'rganayotganlari, sport mashg'ulotlarida chiniqayotganlaridan quvondim. Guvohi bo'lganimday, bizning bolalar dam olib turib ham o'qish

Ta'lim bilan tarbiya,
Hamisha o'rtoq ekan.
Yaxshilarning qalbida,
Tarbiya ko'proq ekan.

Kim tug' qilib ta'limni,
Singsa ilm qatiga –
Duch keladi, albatta,
Xalqining rag'batiga.

Axir TA'LIM-TARBIYA,
Qarang, birga yozilar.
Bir chiziq-la tavsiya,
Qilinar bu yozuvlar.

Ikkov bir-biriga do'st,
Bir-biridan ustuvor.
Yomonlikka duch kelmas,
Kimki bo'lsa unga yor!

Ta'lim bilan tarbiya,
Posangisi teng kimda.
Ziyoli inson, deya.
E'zozlanar elimda.



va mehnatdan qochmaydi,
aksincha har ishda mohir-u,
g'olib bo'lmoqqa intilishadi.
Meni ayniqsa, ularning xorijlik
tengdoshlariga namuna bo'la

olganliklari xursand qildi.
Amerikalik bolalar ham men
singari bir olam taassurotlar
olib, do'stlariga havas qilgan
bo'lsa, ajab emas.

Umida ABDUAZIMOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

YOZ — SOZ MAVSUM

Ayni damda yoz chillasi-
ning jaziramasi rosa zabtiga olgan-da...

Lekin shu issiqqa ham qaramay, buxorolik 1000 dan ortiq o'g'il-qizlar hunar o'rganish, kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish hamda chet tilini o'rganish maqsadida viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshida tashkil etilgan to'garaklarga muntazam qatnashishmoqda. Xo'sh, bu o'quvchilar ayni damda nimalar bilan mashg'ul, deb o'ylaysiz?

Bu borada ushbu markazning monitoring mutaxassisi Guljahon Kazimova bizga quyidagilarni gapirib berdi:

shaxmat, ekodizayn va boshlang'ich texnik modellashtirish kabi to'garaklar tashkil etilib, ularga 280 nafardan ortiq o'quvchilar jalb etilgan.

zashtlari» pyesasi asosida sahna ko'rinishi namoyish etildi. Qizg'in va murosasiz kechgan «Eng yaxshi kitobxon» tanlovida esa mutolaaga mehr qo'yan yoshlarimiz o'z mahoratlarini ko'rsatdilar. «To'qish» va «Munchoqli bezak» to'garagi a'zolari ishtirokida «Epli qiz» tanlovi o'tkazildi. «Yosh doirachilar» va «Milliy raqs» to'garaklari a'zolari esa o'z chiqishlari bilan tadbirning ko'tarinki ruhda o'tishiga hissa qo'shdilar.

Tadbir so'ngida besh tashabbus bo'yicha nominatsiya g'oliblari faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Markazimizda iqtidorli o'quvchilar, xalqaro tanlovlarda g'olib bo'layotgan yoshlarimiz ko'p. Jumladan, «Tasviriy

san'at» to'garagidan 2-umumta'lim maktabi o'quvchilari – Jasmin Hasanova, Malika Faxriddinova Rossiyaning Moskva shahrida o'tkazilgan «Rossiya san'at haftaligi» festivalida I darajali diplom bilan, shu maktabning iqtidorli o'quvchisi Kamola Murtazoyeva esa Parijida o'tkazilgan festivalda II darajali diplom bilan taqdirlandilar.

Markazdagi o'quvchilar «Yoz mavsumi – soz mavsum» deya bir ovozdan baralla kuylamoqdalar. Chunki ta'tilda, jonajon markaz qo'ynida ham hunar o'rganib, ham tadbirlarda qatnashib, tanlovlarda yuqori o'rinlarni zabt etish chindan ham soz-da, shunday emasmiz?

Ozoda TURSUNBOYEVA



– Viloyatimizning Eski shahar hududidagi o'quvchilarni ham to'garaklarga jalb etish maqsadida Buxoro shahar 14-umumta'lim maktabining sobiq eski binosi viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi tasarrufiga o'tkazildi. 412 o'ringa mo'ljallangan 2 qavatli bino mukammal ta'mirlanib, kerakli jihozlar bilan ta'minlandi. To'garak xonalari keng va shinam ko'rinish oldi. Mazkur binoda ham rus tili, ingliz tili, bichish-tikish, liboslar dizayni, badiiy gimnastika, to'qish, tasviriy san'at, mental arifmetika,

Yoz ta'tili mavsumida markazning har ikkala binosida to'garak mashg'ulotlari hamda turli tadbirlar, sport musobaqalari, ko'rik-tanlov va kitobxonlik kechalari o'tkazilmoqda. Jumladan, yaqinda Davlatimiz rahbari ilgari surgan besh tashabbusga bag'ishlanib «Besh tashabbus – besh qanot» tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan buyumlaridan ko'rgazmalar tashkil etildi. San'atsevar bolalar ishtirokida Po'lat Mo'min qalamiga mansub «Qovoqvoynig sargu-



«DAHSHAT»NI O'N MARTA O'QIDIM

Har gal qo'limga kitob olganimga, bir voqea yodimga tushadi. Bundan uch-to'rt yil avval maktabimizda «Men o'qigan birinchi kitob» tanlovi e'lon qilindi.

Bu haqida onamga aytganimga, ular «qani endi sen ham ishtirok etsang, juda xursand bo'lardim», dedilar. Shunday qilib, men bu tadbirda ishtirok etishga ahd qildim. Chunki qalbimda onamni xursand qilish hissi avj olgan edi. Men tanlovga tayyorlanish jarayonida anchagina kitob o'qib chiqdim. Ayniqsa, Abdulla Qahhorning hikoyalari zavq bilan mutolaa qilardim. «Dahshat» hikoyasini esa o'n marta o'qiganman. Intilishlarim zoye ketmadi. Tanlovda 1-o'rin sohibiga aylandim.

Ota-onamning ishonchi meni adabiyot olamiga yetakladi. Keyinchalik o'zim ham ijodiy mashqlar qila boshladim. Hozirda mening eng katta orzum jurnalist bo'lishdir. Bu borada menga sevimli gazetam «Tong yulduzi» yo'ldosh bo'ladi, degan umiddaman.

Behruzjon XURRAMOV,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumanidagi
19-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

Bu yil maktabni a'lo baholarga tamomlab, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat til va adabiyot universitetining filologiya fakultetiga hujjatlarimni topshirdim. Men «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga ilk maqolamni olib borganimga, u yerdagi ustozlarim maqolamni o'qib chiqib, mavzusi yaxshi tanlangani, ammo imlo xatolari ko'p ekanini aytishgandi.

Men o'zbek tilining imlo qoidalarini tahririyatda yana bir bor o'rgandim desam, mubolag'a bo'lmaydi. Qator publitsistik maqolalarim «Tong yulduzi»da bosilmoqda. Ustozlarimning bergan savodxonlik darslari ijodiy imtihonda qo'l keldi. Ilmga tashna bo'lajak talabalar O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafuddinovning «Domlalarim» nomli kitoblaridagi «Til ilmining darg'asi» degan maqola matni asosida diktant yozdik. Matn bilan tanishib, ona ti-


IJODIY IMTIHON TOPSHIRDIM

limizning targ'ibotchisi, olim Ayub G'ulomovning tilshunoslik sohasidagi o'rni haqida bilib oldik.

Ijodiy imtihon juda shaffof ruhda o'tdi. Bo'lajak talabalar uchun barcha sharoitlar muhayyoligini ko'rib, havasingiz keladi. Hozirda men test sinovlariga tayyorgarlik ko'ryapman. Test savollariga javob topishda esa o'z bilimimga suyanaman. Chunki yozuvchi, shoir, adiblarning ijodiy asarlariga oid savollarga, albatta, javob topa olaman. Boisi o'zbek ijodkorlari hamda jahon yozuvchilarining sara durdona asarlarini o'qib chiqqanman. O'zbek adiblarining dilkash suhbatlaridan bahramand bo'lish asnosida, uchrashuv taassurotlari haqida publitsistik maqolalar yozishda davom etyapman. Ozod Sharafuddinov haqida yozgan ilk publitsistik maqolam adib xotirasiga bag'ishlab chop etilayotgan to'plamga kiritilganligini ustoz Xurshid Do'stmuhammedovdan eshitgach, sevinchim ichimga sig'may ketdi. Nasib etsa, ustozlarim ishonchini oqlab, albatta, talaba bo'laman. Zero, ilm insonni aql-idrokli, bilimdon, irodali, e'tiqodli qiladi. Donishmandlarimizning «Imdan bir shu'la tushgan on, Shunda bilursankim, ilm bepoyon» hikmatini qanchalik to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilib boraverasiz.

Ibrohim RIXSIBOYEV,

Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 1-umumta'lim maktabi bitiruvchi



Lesson 30

Write the words in the correct form and find the parts of the body.

1. You hear with it (are) ear.
2. You eat with it (thoum) _____.
3. You bread with it (sone) _____.
4. You walk with it (gle) _____.
5. You see with it (yee) _____.
6. You lift with it (mar) _____.

Choose the correct form of the verb.

1. Yesterday I _____ at the cinema (to be).
2. Yesterday we _____ at Sardor's birthday (to be).
3. Last week they _____ in London (to be).
4. My sister _____ breakfast at 8 o'clock (to have).
5. Last year my friend _____ a nice dog (to have).



prepared by Zilola SIROJIDDINOVA,
english teacher school №41, Angren city

RIDDLES

Three lives have I. Gentle enough to soothe the skin,
Light enough to caress the sky, Hard enough to crack
rocks. What am I?

A very pretty thing am I,
fluttering in the pale-blue sky.
Delicate, fragile on the wing,
indeed I am a pretty thing.
What am I?

Which bird does not belong in this group? Finch,
gull, eagle, ostrich, or sparrow?



THE NEEDLE TREE

Reading time

There were once two brothers who lived at the edge of a forest. The elder brother was very mean to his younger brother. He ate up all the food and took all his brother's good clothes. One



day, the elder brother went into the forest to find some firewood to sell in the market. As he went around, chopping the branches of tree after tree, he came upon a magical tree. The tree said to him, 'Oh kind sir, please do not cut my branches. If you spare me, I will give you golden apples'. The elder brother agreed, but was disappointed with the number of apples the tree gave him. Greed overcame him, and he threatened to cut the entire trunk, if the tree didn't give him more apples. The magical tree, instead, showered upon the elder brother, hundreds upon hundreds of tiny needles. The elder brother lay on the ground crying in pain as the sun began to lower down the horizon.

The younger brother grew worried and went in search of his elder brother. He found him laying in pain near the tree, with hundreds on needles on his body. He rushed to his brother and removed each needle with painstaking love. After he finished, the elder brother apologised for treating him badly and promised to be better. The tree saw the change in the elder brother's heart, and gave them all the golden apples they could ever need.

Mahallamizdagi gulzor orqali uyga qaytayotgandik, qiz bolaning yig'isini eshitib, beixtiyor to'xtadik. O'rtog'im Abdulloh: «Sening nima ishing bor, Islombek o'rtoq, yur, ketdik», dedi. Men uning gapiga quloq solmasdan, yig'layotgan qizchani yoniga bordim. Qoramtir qo'ng'ir sochlariga kapalaknuxsa oq lenta taqqan yetti yoshlardagi qizcha yerda yig'lab o'tirardi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radim undan.

– Sumkamni yo'qotdim! – dedi yig'i aralash.

– Qayerda yo'qotding? – deb so'radim undan.

U jajji qo'llari bilan gulzorni ko'rsatdi. Kutilmaganida, katta qora it gullar orasidan chiqib, terakzorga o'zini urdi. Demak, qizcha o'yinga berilib, sumkasini unutib qoldirgan.

– Ichida biror yegulik bor edimi? – deb so'radim undan.

– Go'shtli non boriydi, oyim beruvdilar! – deya javob qildi qizcha.

Hammasi tushunarli: demak, sumkani it olib ketgan. Gulzor ichiga kirdim va tikanli gullar orasidan

tarlar sochilgan, non uvoqlari ham ko'zga tashlanib turardi. Sumkani oldim va qoqib, kitob-daftarlarni

men salom berib, bo'lgan voqeani takrorladim. Onaxon avvaliga juda qo'rqib ketdi, qizchasini bag'riga bosib, undan hol-ahvol so'rab, xotirjam tortgach, menga o'giriilib, rahmat aytdi. Onamni tanishini aytib, qayta minnatdorchilik bildirdi.

Ertasi kuni maktabdagi majlislar zalida yig'ilish bo'ldi. Qarasam, maktabimiz rahbari yonida kechagi ayol va o'sha qizcha. Yuragim urib ketdi.

Abdulloh yonimda o'tirgan edi. Ayol kechagi voqeani so'zlab, menga, ota-onamga, maktabdagi ustozlarimga rahmat aytdi. Abdullohga qaragam, qip-qizargancha boshini egib o'tirardi.

Zalda gulduros qarsaklar yangrab, ustozlarning:

– Ofarin, yasha, Islombek! – degan so'zlaridan qanot chiqarib uchgim keldi.

Abdulloh sekin xo'rsinib qo'ydi.
Muhammadali TO'LQINOV,
poytaxtimizning Sergeli tumanidagi
322-umumta'lim maktabi o'quvchisi



o'tib, katta tup gul tagida chaynab tashlangan jigarrang sumkaga ko'zim tushdi. Sumka yirtilgan, kitob, daf-

joylab, qizchaga keltirib berdim va uni uyiga olib bordim. Ostonada bizni oriqqina ayol qarshiladi va



QUVNOQ FASL

Jazirama, issiq yoz,
O'tar quvnoq, qanday soz.
Bu faslida shodlanar,
Ko'lda hatto o'rdak, g'oz.

Bolalarga yoz fasli,
Juda-juda yoqadi.
Yozda suvda miriqib,
Baliq bo'lib oqadi.



Dilnoza SAIDOVA,
Toshkent shahar, Bektemir tumanidagi
289-umumta'lim maktabi o'quvchisi

YURTNING CHIROYI

Qanday go'zal-a,
Yozimiz, oyi.
Olamga ko'z-ko'z,
Bog'lar chiroyi.

Shoxlarga qarang,
Mevasi shig'il.
Egsa ham shoxin,
Ko'tarar ahil.

Dalalarimiz –
Ochil dasturxon.
Qayga borsak shod –
Bo'lamiz mehmon.

Cho'milsak suvi,
Dilni qilar chog'.
Yozning har kuni –
To'kinlik, o'rtoq.

Qanday go'zal-a,
Yozimiz, oyi.
Chorlar o'ziga –
Yurtning chiroyi...

NAVOLI SOY

Navoli soy –
Navoli soyga.
Cho'milishga
Juda bop joy.

Toza suving,
Tanga davo.
Chuldirashing –
Misli navo.

Dilga juda
Yoqib ketar.
Tanga sog'lik
Taqib ketar.

Navoli soy –
Navoli soy.
Suvi shifo,
Davoli joy.

Hamidulla MURODOV,
Toshkent viloyati,
Bo'stonliq tumani

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

DONISHQISHLOQ

Mana, qadimiy va hamisha navqiron Sizga tanish bo'lgan Donishqishloq! Purviqor tog'lar, azim daryolar ma'lum va mashhur Archalisoy bilan o'ralgan Donishqishloq. U Erkin Vohidov ta'rifini keltirgan davrdan ancha o'zgarib ketgan. Shu o'rinda Ra'no buvimning gaplari yodimga tushdi. «Donishqishloq mening ona makonim. Bolaligim o'tgan joy. Men uchun hamisha aziz bu maskanning tarixi juda uzoqlarga borib taqaladi. Qishloq sen, otang, onang va men, buvam, bobokalonlarimiz tug'ilmasdan ancha avval paydo bo'lgan. Meni qanchalik yaxshi ko'rsang, Donishqishloqni ham shunchalik yaxshi ko'r. Chunki u yerga mening kindik qonim to'kilgan». Men buvimni aytganlariga amal qilaman, uni To'raqishloqdan so'ng yaxshi ko'raman. Chunki To'raqishloqda men tug'ilib o'sganman. Yaqinda «Donishqishloq chet elliklar nigohida» degan rukn bo'yicha respublika gazetalarida yozilgan maqolaga ko'zim tushgandi. Ularning birida yaponiyalik olim Vo Ajab O shunday yozgan (uni shundayligicha keltiraman): «Donishqishloqqa kelib meniki tushunmadi. Qanday qilib chumchuk tuxumidan bedana, bedanadan tuyaqush olish mumkin? Bu axir, axir, juda olamshumul kashfiyot-kul!»

Bunga Matmusa tog'amning e'tirozi: «Shuni kashfiyot degan yapon olimiga hayronman. O'g'lim

Tamtumboylar kurk bo'lgan bedanaga do'kondan olingan tuyaqush tuxumini «proba»ga qo'ygan ekan. Shu ochibdi-da, qarangi!»

Ikkinchi xabar: italyalik olim Pi Ani No yozadi:

MEN, MATRAMIM VA TAMTUMBOY

(Hikoya)



«Meniki musiqaga juda ixlosi baland. Biroq, yer yuzida donishqishloqliklar yaratgan musiqaga asobga o'xshashini ko'rmadim. Uzun trubani pufilasang, «G'a-g'u-g'a-g'a-g'u» deydi. Men pufiab ko'rdim, «pup» degan tovush chiqdi. Notasiz, klavishsiz oddiy tunuka trubani chalish... Evrika».

Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi

Matmusa tog'amning sharhi: «Karnay chalish ham ish bo'libdimi? Bizda uni beshikdagi bola ham chala oladi. «G'a-g'u»lab qulog'ingizni qotiradi. Qanaqa moda (nota), qanaqa chalish hayronman?»

Bunday sharhlar «Donishqishloq.tuz.emayl.mushukcha.nuqta.uz» saytida tiqilib yotibdi. Xohlagancha o'qib olishingiz mumkin. Asosiy masalaga o'tsak. Donishqishloqqa kiraverishingizda kattakon darvoza o'rnatilgan. Unga o'zbekcha, ruscha va inglizcha «Donishqishloqqa xush kelibsiz!» degan yozuv osib qo'yilgan.

Darvozaning o'ng tomoniga o'sha mashhur chegalangan lagan, chap tomoniga dutor osib qo'yilgan. Darvozadan ichkari kirsangiz, «Donishqishloq xaritasi»ni ko'rasiz. Xaritada qishloqning bo'yi, eni, yashaydigan odamlar soni, nima ish bilan shug'ullanishi, nechta xonadon borligi, uzatiladigan qizlar yoshi, kasbi, uylanadigan yigitlar yoshi, kasbi to'liq yozilgan. Ro'yxat oy davomida yangilanib turiladi. Uylar asosan ikki qavatli qurilgan. Uchinchi qavat pult bilan boshqariladi: ochiladi, yopiladi. Bu yerga besh litrli baklashkalarda pomidor, o'n litrlisida bodring ekilib, qatorlashtirib qo'yilgan. Bular tomchilatib sug'oriladi. Suv maxsus jo'mrak orqali quduqdan olinadi. Yoritishda quyosh batareyasi ishlatiladi.

(Davomi bor)

TA'TIL MAKTABDA O'TMOQDA

Yoz. Erta tongdan o'tob jaziramasi kuydiraman deydi. O'n yoshlar atrofidagi ikki bolakay maktab eshigi yonidagi katta chinor soyasida kimnidir kutib o'tirishardi. Yo'lakdan o'tib borarkanman, ulardan so'rayman:



– Soat hali yetti bo'lmasdan, bu yerda nima qilib turibsizlar? Buning ustiga ta'til bo'lsa...

– Biz shu maktabning o'quvchilari. Bu yerda tashkillashtirilgan kunduzgi oromgohga qatnayapmiz! – javob berishdi baravariga.



Ular bilan suhbatimiz tugamasdan, bolalar soni o'ntaga yetdi. Ma'lum bo'lishicha, ushbu maktabda har kuni soat 9:00 dan faoliyat boshlaydigan yozgi sog'lomlashtirish



maydonchasiga bolajonlar tong otishi bilan yetib kelishar ekan. Qiziqishim ortib, men ham o'quvchilarga qo'shilib, maktab ma'muriyati – kunduzgi oromgoh tashkilotchilarini kuta boshladim...



Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 212-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Lochin» sog'lomlashtirish maydonchasida erta tongdan bolajonlar saf tortib,



badantariyani bajarishadi. Jismoniy mashqlarda chiniqqan dam oluvchilar odatdagiday, shaxmat-shashka, stol tennis musobaqalarida bellashadi. Shaxmat bo'yicha navbatdagi musobaqada 5-«A» sinf o'quvchisi Aziza Rahmonqulova 1-o'rinni egalladi. «Yosh rassomlar», «Yosh kitobxon», «Mohir qo'llar» va «Ertaklar olami» to'garaklari bolajonlar bilan gavjum.

– Maktabimiz joylashgan hududni harbiy shaharcha desa ham bo'ladi, – deydi maktab direktori Alisher Sharipov. – Bolajonlar bilan tez-tez harbiy qismlarga sayohat uyushtirib turamiz. O'smirlarimiz askarlik hayoti, burch va mas'uliyat zalvori haqida kengroq bilimga ega bo'lishmoqda. Galdagi sayohatda bolalar askar akalari bilan «Elparvar» badiiy filmni tomosha qilishdi. Film rejissyori bilan uchrashuv barchada katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, bolajonlar Toshkent viloyatidagi «Turon» kutubxonasiga safar qilishdi. Qo'shiq kuylashdi, raqsga tushishdi. Ayniqsa, «Egri va To'g'ri» ertagi asosida sahnalashtirilgan teatr tomoshasi juda ajoyib bo'ldi.

Ana, ustozlardan Rustam Zokirov, Husniya Sobirova hamda Bosh yetakchi Madina Smaylxo'jayevaning qo'llarida qog'oz quti. Ha, aytmoqchi, bugun ular bolajonlarni muzqaymoq bilan siylashmoqchi!
Nurbek QIDIRALIYEV

BU YURTNING O'XSHASHI YO'Q



Assalomu alaykum, hurmatli «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari!

Har gal sevimli gazetamni o'qib borar ekanman, uning sahifalarida ijod namunalari chop etilayotgan tengdoshlarimga havas qilaman. Men ham bo'sh vaqtlarimda she'rlar yozib turaman. Bu borada menga Ra'noxon opa Usmonova ustozlik qiladilar. She'riy mashqlarim toza ko'nglimning ifodasidir. Mana, o'zingiz ham ulardan birini o'qib ko'ring...

Oromgohda bolalar, Miriqib dam olishar. Sarguzasht asarlardan, Ba'zan bahs ham qilishar.

So'lim yoz kunlarining, Bilsangiz, o'xshashi yo'q. Do'stlik ipin bog'lashar, Hur Vatanda ko'ngil to'q.

Feruza MO'MINOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Salom, aziz tengdoshlar! Yozgi ta'til kunlaringiz soz o'tayaptimi? Men sevimli «Tong yulduzi» gazetasi-ning yosh muxbiri sifatida sizlarga Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 7-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Quvonch» oromgohi faoliyati haqida so'zlab bermoqchiman. Chunki bu maskanda o'zim ham ikki-uch kun miriqib dam oldim.

OROMGOHDAGI XAZINALAR ORTIDAN

Ushbu oromgohda o'quvchilar ertalabki soat 9:00 dan kechki 17:00 gacha vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari mumkin. Men bu yerda tengdoshlarimning «Happy English» to'garigida ingliz tilini o'rganishayotgani-yu, «Ona tilim jon-u dilim» deb nomlangan mashg'ulotda esa bilimlarini mustahkamlayotganining guvohi bo'ldim. «Kompyuter saboqlari» to'garigi esa texnikaga




qiziquvchan o'quvchilar uchun manzur bo'lmoqda. Qolaversa, bugun kompyuterni o'rganishimiz ertaga yetuk mutaxassis bo'lishimizda asqotishi aniq.

«Basketbol sirlari», stol tennis kabi to'garaklar va turli musobaqalar-u, bellashuvlarning yanada quvnoq o'tishi bu yerda sportsevarlarning ko'pligidan dalolatdir. Kuni kecha o'tkazilgan bellashuvda oromgoh Bosh tarbiyachisi Ravshanoy Isakova, sport murabbiyi Olim Xudoyqulov, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar Yoqutxon Arifjonova hakamlik qilishdi. Musobaqada «Eng chaqqon va uddaburon ishtirokchi» nominatsiyasida g'oliblikni «Olimlar» guruhi ishtirokchisi Ne'matillo G'afurov qo'lga qiritdi. «Sirlil xazinalar ortidan» o'yini esa tarbiyachilar va bolalar ishtirokida tashkillashtirildi. Xazinani topish uchun ko'plab maqol va topishmoqlarni aytish kerak edi. «Aktyorlik mahorati» to'garigi esa yosh havaskorlarga saboq berishdan tashqari, ular tayyorlagan sahna ko'rinishlari orqali bolajonlarga quvonch ulashmoqda.

Azizbek ABDUMALIKOV, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabi o'quvchisi

KITOBBLAR POYTAXTINI BILASIZMI?

1930- va 1940-yillarda fashistlarning Germaniyadagi hukumati minglab kitoblarni taqiqlagan edi. Yillar o'tib, Argentina rassomi Marta Minujin rahbarligida senzuralangan kitoblarni xotirlash uchun yodgorlik yaratildi. Bu monument Germaniyaning Kessel shahrida o'rnatilgan.



2011-yilda Buenos-Ayres Jahon kitoblari poytaxti bo'lganida, shaharda kutubxonalar, elchixonalar va jismoniy shaxslar tomonidan taqdim etilgan 30 mingdan ziyod kitoblarni qamrab olgan 82 metrlik Tel-mesh minorasi qurildi.



Janubiy Koreyadagi Cheongju san'at markazidan tashqari joylashgan yerga o'rnatilgan va kapalaksimon shakliga ega kitob - Jikji yodgorligi deb nomlanadi.



Birlashgan Arab Amirliklaridagi Sharja shahri 2019-yilda Jahon kitoblari poytaxti deb e'lon qilingandan keyin haykaltaroshlar tomonidan o'rnatilgan monument.



Internet manbalari asosida Sherali TOSHHIYOZOV tayyorladi




BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

SUDOKU mashqi

Krossvorddan keyin dunyoni zabt etib turgan sudoku ko'ngilochar aql mashqlaridir. XVIII asr matematigi Leonardo Eylerning «Sehri kvadrati»ning o'zginasi,

raqamlarni joylashtirishga manba - kitob titish shartmas, faqat mantiqiy e'tibor kerak. Eniga-bo'yiga raqamlar takrorlan-

masligi zarur. 4x4 kvadrat doirachalarga 1 dan 4 gacha raqamlarni bog'langan holda joylashtiring.



Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA